

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ELEKTRON ODIL SUDLOV ORQALI SUD QARORLARINI CHIQARISH
JARAYONINI YANGILASH VA OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Sultonov Mahmudbek Xikmat o‘g‘li

*Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi yo‘nalishi magistranti
mahmudsultonov9999@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron odil sudlov faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali sud qarorlarini chiqarish jarayonini yangilash va optimallashtirish istiqbollari tahlil qilingan. Hozirgi davrning talablari va rivojlanish tendensiyalari hisobga olingan holda, elektron sudlov faoliyatida sud hujjalarni chiqarishda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari, afzallikkabi va muammolari ko‘rib chiqilgan. Ish doirasida sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, blokcheyn kabi zamonaviy raqamli texnologiyalarning sud hujjalarni chiqarish jarayonini optimallashtirishdagi roli va imkoniyatlari muhokama qilingan. Shu bilan birga, bu texnologiyalarni qo‘llash orqali sud hujjalarning shaffofligini oshirish, sud hujjalarni chiqarish jarayonining tezligi va samaradorligini yaxshilash, shuningdek, sud tizimiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash kabi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: elektron sudlov, raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan tizimlar, huquqiy texnologiyalar, sud samaradorligi.

KIRISH

Bugungi kunda axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Har bir sohaning rivojiga raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda, bu esa, o‘z navbatida, huquqiy sohada ham ma’lum darajada o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Sud hujjalarni chiqarish jarayoni ham bundan mustasno emas.

Butun dunyodagi raqamlashtirish jarayonlari, jumladan sun’iy intellekt, blokcheyn, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish kabi zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sud hujjalarni chiqarish jarayoniga yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bunday zamonaviy texnologiyalar sndlarning ish samaradorligini oshirish, sud hujjalarni chiqarish jarayonining tezligi va shaffofligini yaxshilashga imkon beradi.

Shu bilan birga, sud tizimiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishning o‘ziga xos kamchiliklari mavjud. Bunga misol tariqasida, ma’lumotlar xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, sudlov faoliyatida qo‘llanilayotgan sun’iy intellekt qarorlarining qonuniyligi va adolatlilikiga bo‘lgan ishonch kabi masalalarni keltirish mumkin. Shuning uchun ham ushbu ilmiy tadqiqotda zamonaviy raqamli texnologiyalardan sud tizimida foydalanishning afzallikkabi va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlab, ularni hal etish yo‘llarini izlashga harakat qilamiz.

Mazkur ishda, shuningdek, xorijiy tajriba va davlatimiz misolida sud hujjalarni chiqarish jarayonini zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali yaxshilash va optimallashtirish istiqbollari tahlil qilingan. Bu esa, davlatimiz huquqiy tizimini yanada rivojlantirishga va zamon talablariga javob beradigan shaffof hamda samarali sud tizimini shakllantirishga hissa qo‘sish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – sud hujjalarni chiqarishda raqamlashtirishning imkoniyatlarini tahlil qilish va shu orqali sud tizimini yanada samarali hamda shaffof qilish imoniyatlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- Sud hujjalarni chiqarishda raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyatini o‘rganish va uning sud tizimini samarali hamda shaffof qilishga ko‘rsatadigan ta’sirini tahlil qilish;

Ilmiy elektron jurnali

- Boshqa davlatlarning sud tizimidagi raqamlashtirish amaliyotini o‘rganish va solishtirish;
- Raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnik va tashkiliy cheklovlarini aniqlash va ularning yechimlarini topish;
- O‘zbekiston elektron sudlov faoliyatida raqamlashtirishni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish [13].

Sud tizimini raqamlashtirishning asosiy jihatlariga quyidagilar kirdi:

1. Sud hujjatlarini chiqarishda ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish. Bu esa sud hujjatlarini elektron shaklda saqlash, sud ishlarini yuritishni avtomatlashtirish va ma’lumotlar bazasini yaratishni o‘z ichiga oladi.
2. Sud majlislari hamda sud hujjatlari aylanishini elektron shaklda amalga oshirish;
3. Sud hujjatlarini onlayn tarzda qabul qilish va e’lon qilish imkoniyati;
4. Sud hujjatlarining haqiqiyigini ta’minlash uchun raqamli imzolardan foydalanish;
5. Sud ishlari bo‘yicha statistika va hisobotlarni avtomatik tarzda tuzish va tahlil qilish imkoniyati kengayadi [14].

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Rivojlangan davlatlarning ko‘pchiligi sud ishlarini samarali boshqarish uchun elektron sudlov tizimlarini joriy etgan. Bunday tizimlar sud ishlarini yuritish jarayonini avtomatlashtirish, arizalarni onlayn tarzda qabul qilish va sud hujjatlarini elektron shaklda taqdim qilish imkonini beradi. Sud sohasini raqamlashtirish bo‘yicha dunyo tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ba’zi rivojlangan davlatlar sud hujjatlarini chiqarishda sun’iy intellekt va maxsus algoritmlari tizimlardan foydalanishni boshlagan. Bunday texnologiyalar ma’lumotlarni tahlil qilish va sud qarorlarini optimallashtirishda yordam beradi. Quyida ba’zi rivojlangan davlatlarning sud tizimida qo’llanilayotgan raqamlashtirish tizimlaridan misollar keltirilgan:

AQSHda elektron hujjatlar almashinushi (E-filling): AQSH sudlari elektron hujjatlar almashinushi tizimidan keng miqyosda foydalanadi. Shu orqali advokatlar va fuqarolar sudga hujjatlarni onlayn tarzda topshirishlari mumkin.

Yevropadagi Yevropa Ittifoqining yustitsiya portali: Yeprompa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan davlatlarda sud ishlari bo‘yicha ma’lumotlar beruvchi yagona onlayn platforma ishlab chiqilgan. Ushbu portal sud ishlari bo‘yicha mavjud ma’lumotlarga kirish va huquqiy yordam olish imkonini beradi. Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan davlatlarning ko‘pchiligi sudlararo hujjatlar almashinuvini raqamlashtirishga o‘tgan.

Janubiy Koreyada esa sun’iy intellektga asoslangan tizimlar mavjud bo‘lib, ulardan sud tizimida sun’iy intellektga asoslangan qarorlarni qabul qilishda foydalaniladi. Bu esa sud tizimining samaradorligini oshirishga va fuqarolarga qulaylik yaratishga xizmat qilmoqda.

Hindistonda hozirgi davrda sudlar elektron sudlov tizimlarini joriy etishga intilmoqda, shu orqali sud jarayonlarini tezlashtirish va ularni shaffofroq qilish maqsad qilingan.

Sud tizimini raqamlashtirish jarayoni O‘zbekistonda ham keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Joriy etilayotgan bir qator yangiliklar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Videokonferensaloqa orqali sud majlislari: Sud majlislarida ishtirot etish uchun videokonferensaloqa tizimidan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu sud jarayonlarini an’anaviy sud zalidan tashqarida ham amalga oshirish imkonini beradi;

Sud ishlarini avtomatik taqsimlash: Sud ishlarini sudyalar o‘rtasida avtomatik tarzda taqsimlash tizimi joriy qilingan. Bu sud ishlarini boshqarishda samaradorlikni oshiradi;

Elektron tarzda sud qarorlarini chiqarish: Sud qarorlari endi elektron shaklda chiqarilib, majburiy ijroga qaratiladi. Bu jarayon sud qarorlari ijrosini tezlashtirishga yordam beradi;

Ilmiy elektron jurnali

Onlayn shikoyat berish imkoniyati: Fuqarolar endi sud qarorlaridan norozi bo‘lgan taqdirda, elektron tarzda shikoyat berishlari mumkin;

Axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiya: Sudlar va boshqa vazirlik hamda idoralar o‘rtasidagi ma’lumot almashinushi endi axborot tizimlari o‘rtasida integratsiya qilingan holda amalga oshiriladi, bu esa qog‘oz ishlarini kamaytiradi va jarayonlarni tezlashtiradi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Albatta raqamlashtirish jarayonini amalga oshirishda ba’zi texnik va tashkiliy cheklovlar mavjud, ular quyidagilar:

1. Raqamlashtirish uchun zarur bo‘lgan texnik infrastruktura va resurslarning yetishmasligi. Bu kuchli kompyuter tizimlari, ishonchli internet ulanishlari va zamonaviy dasturiy ta’mintoni o‘z ichiga oladi.

2. Ma’lumotlarni himoyalash va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar. Huquqiy ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minalash uchun kuchli shifrlash va xavfsizlik choralarini ta’minalash zarur.

3. Texnologiyalarning tez o‘zgarishi va yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq cheklovlar. Bu doimiy ravishda tizimlarni yangilash va xodimlarni o‘qitishni talab qiladi.

4. Sud xodimlari va huquqshunoslarning raqamlashtirilgan tizimlardan foydalanish bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmaga ega emasligi.

5. Sud tizimida mavjud bo‘lgan an‘anaviy ishlash usullaridan raqamlashtirilgan tizimlarga o‘tishda duch kelinayotgan ayrim muammolar.

6. Raqamlashtirishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning cheklanganligi (xususan, quyi va o‘rta miqyosdagi sud tizimlari uchun).

Raqamlashtirishning sud hukmlari chiqarish jarayoniga ta’sirini quyidagi asosiy jihatlarda ko‘rib chiqishi mumkin: raqamlashtirish sud hukmlari chiqarish jarayonini tezlashtiradi, chunki elektron hujjat aylanishi an‘anaviy qog‘oz ishlaridan ancha tezroq amalga oshadi, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va qarorlarni tezroq qabul qilish sularning umumiyo‘ samaradorligini oshiradi, jarayonlarni avtomatlashtirish vaqt va mablag‘larni tejaydi, chunki kamroq vaqt sarflanadi va kamroq xodimlar jalg qilinadi. Bu ayniqsa, hozirgi ish yuklamalari vaqtida sudlar tomonidan yoziladigan qarorlarga kamroq vaqt ajratish imkonini beradi.

Shunday qilib, sud hukmini chiqarish jarayonini takomillashtirishda raqamlashtirish imkoniyatlardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va istiqboldagi yo‘nalishlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

Raqamli infrastruktura va texnologiyalarni rivojlantirish: Sud tizimlari uchun zamonaviy raqamli infrastruktura va texnologiyalarni, masalan, kuchli serverlar, ishonchli internet ulanishlari va xavfsizlik tizimlarini rivojlantirish;

Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish: Sud xodimlari va huquqshunoslarni raqamlashtirilgan tizimlardan samarali foydalanish bo‘yicha o‘qitish va ularning malakasini oshirish;

Kiber xavfsizlik choralarini kuchaytirish: Ma’lumotlarni himoya qilish va kiber hujumlarga qarshi turish uchun kiber xavfsizlik choralarini kuchaytirish;

Foydalanuvchilarga yo‘naltirilgan interfeyslarni yaratish: Foydalanuvchilarga qulay va oson tushuniladigan elektron interfeyslar va dasturiy yechimlarni ishlab chiqish;

Sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish: Sun‘iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarni sud qarorlari chiqarish va boshqa sud jarayonlarida qo‘llash;

Blokcheyn texnologiyasini joriy qilish: Huquqiy hujjatlar va sud qarorlarining ishonchlilagini va shaffofligini ta’minalash uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanish;

Elektron sudlovni kengaytirish: Sud majlislarini onlayn o‘tkazish imkoniyatlarini kengaytirish va bu orqali sudlov jarayonlarini samaraliroq va tezroq amalga oshirish;

Integratsiya: Turli vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya va ma'lumotlarni almashish imkoniyatini oshirish.

XULOSA

Bugungi kunda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalari raqamlashtirilmoqda, shunday ekan raqamli texnologiyalarsiz bugungi hayotimizni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jumladan, davlatimizda sud tizimini isloh qilish qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita sudlov faoliyatini raqamlashtirishga, elektron sudlov faoliyatini tashkil qilishga, sudlar faoliyatini yanada samarali va shaffof qilishga, sud tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan modernizatsiya qilishga qaratilgandir. Sud sohasini isloh qilish orqali sndlarni jazolovchi organ emas, inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi organ sifatida xalqning ishonchini qozonish, sudlov faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarni oldini olish, sud tizimidagi ayrim toifadagi ishlarga sun'iy intellekt texnologiyasini joriy qilish kabi natijalarga erishish maqsad qilib qo'yilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksi //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y. 03/21/683/0375-son, <https://lex.uz/docs/111460>.
2. Sud hokimiysi organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentyabrdagi PQ -4818-sonli qarori //https://lex.uz/docs/4979896.
3. Алишаев С.Т. Судебное решение: законность, справедливость и беспристрастность //Хералд педагогики. Наука и Практика, 2022. – Т. 2. – №.2.
4. Alishayev S.T. Sud hukmini tuzish va rasmiylashtirish muammolari //E-Conference Zone, 2022. – С. 176-179.
5. Alishayev S. T. Odil sudlovning yakuniy hujjati sifatida hukm //E-Conference Zone. – 2022. – С. 171-175.
6. Алишаев С. Т. Особенности вынесения судебного приговора в англосаксонской правовой системе //Господарка и Инновасже, 2023. – Т. 39. – С. 26-35.
7. Европейская этическая хартия об использовании искусственного интеллекта в судебных системах и окружающих их реалиях. Принята на 31-м пленарном заседании ЕКЭП. – УРЛ: <https://rm.coe.int/ru-ethical-charterenversion-17-12-2018-mdl-06092019-2-16809860f4> (дата обращения: 10.10.2020г.).
8. Котлярова В.В. К вопросу о цифровизации процесса отправления правосудия. //Арбитражный и гражданский процесс, 2019. – № 12. С. 46-49.
9. Мацкевич П.Н. Попытка унификации правил преюдиции в цивилистических процессуальных кодексах // Законы России: опыт, анализ, практика, 2019. – №10.
10. Правосудие в современном мире: монография / под ред. В.М. Лебедева, Т.Я. Хабриевой. – Москва: Норма, Инфра-М, 2012.
11. Постановление Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан «О судебном приговоре» от 23.05.2014 года, № 7. <https://lex.uz/uz/docs/2413562>.
12. Тихомиров Ю.А., Антонова Н.В., Бальхаева С.Б., Гаунова Ж.А. Юридическая концепция роботизации: монография. – Москва: Проспект, 2019. – 240 с.
13. Rule of law and public digitalization Copenhagen: Nordisk Ministerrad, 2021. Waage, Frederik, et al. "Digitalization at the Courts." Nordic Council of Ministers, 2022.
14. Tursunboyev A.S. Issues of improving the procedure for preparing a criminal case for trial //World Bulletin of Management and Law, 2023. – Т. 25. –P. 1-4.